

GENDER VA SALOMATLIK TUSHUNCHALARI VA FANDA QO'LLANILISHI

Usmonov Rahimjon

FarDU sirtqi bo'limi o'qituvchisi,

Kambarova Madinabonu

FarDU sirtqi bo'limi o'qituvchisi

Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatda muhim bir tamoyilidir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazardan muhimdir, balki boshqa sohalarda ham rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi kuchli omillardan biridir. 2000 yilda BMT tizimidagi boshqa hamkorlari va butun xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda gender tengligi konsepsiyasini inson faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilib oldi. Shundan buyon mazkur yo'nalishda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Hozirgi kunda ayollar qishloq xo'jaligidan tashqari sohalardagi haq to'lanadigan ish o'rinlarining 41 foizini egallaydi. Vaholanki, 1990 yilda ushbu ko'rsatgich 35 foizni tashkil etgan va bunday ko'rsatgichlar OAV larida shaffof tarzda yoritib boriladi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab gender tenglikni yoyayotgan jurnallar kam emas. Journal of Women, Politics & Policy, Gender & Development, Frontiers : A Journal of Women Studies, Feminist legal studies kabilar shular jumlasidandir. Barqaror taraqqiyot maqsadlari hozirgi kungacha erishilgan yutuqlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan bo'lib, butun jahonda ayol va qizlarga qarshi kamsitishlarni butunlay yo'q qilishni ko'zda tutadi va o'z o'rnida bunga OAV orqali ular huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat yoki chaqiriqlar ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda ba'zi hududlarda sezilarli darajadagi gender tengsizlik saqlanib qolmoqda, xususan bunday tengsizlik haq to'lanadigan ish o'rinlarini egallash hamda mehnat bozorida yaqqol kuzatilmoqda. Jinsiy zo'rvonlik xavfi, bepul parvarishlanish imkoniyatining cheklanganligi va uy-ro'zg'or tashvishlari hamda davlat boshqaruvi sohalarida mavjud bo'lgan kamsitishlar xotin-qizlarning rivojlanishi yo'lida hanuz katta to'siqlarni tug'dirib kelmoqda. Har bir inson jinsiy va reproduktiv salomatligini yaxshilash bo'yicha xizmatlardan foydalanish imkoniyatining ta'minlanishi, qolaversa, barcha ayollar yer resurslari va mulk kabi iqtisodiy ne'matlardan erkaklar bilan teng ravishda foydalanish huquqi va imkoniyatini ta'minlash mazkur maqsadga erishishning eng asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirda boshqaruv lavozimlarni egallayotgan ayollar soni ilgarigiga nisbatan ancha ko'p, biroq davlat siyosati va qonunchiligida gender tengligi konsepsiyasi o'z aksini toptirish uchun dunyoning barcha hududlarida yetakchi ayollarni, ularning faoliyatini yanada qo'llab quvvatlashimiz zarurdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) salomatlikni "nafaqat kasallikning yo'qligi emas, balki to'liq jismoniy, aqliy va ma'naviy farovonlik holati" deb ta'riflaydi. Erkaklar va ayollar uchun salomatlik yoki farovonlik degani turli narsalarni anglatishi va sog'liqni saqlash tizimidan turli xizmatlarni talab qilishi mumkin. Birlamchi tibbiy yordam, sog'liqni saqlash xizmatlarining barcha darajalari kabi, turli jinslarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilishi kerak.

Erkaklar va ayollarning sog'lig'iga bo'lgan turli ehtiyojlari Turli xil sog'liq ehtiyojlari quyidagilardan kelib chiqishi mumkin: Biologik va anatomik farqlar: reproduktiv salomatlik uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan tadbirlar turi, masalan, erkaklar va ayollar o'rtasida farq qiladi. Biologik farqlar, shuningdek, erkaklar va ayollar turli kasalliklarga moyil ekanligini anglatadi - masalan, erkaklarda prostata saratoni va ayollarda bachadon bo'yni saratoni. Ijtimoiy va madaniy determinantlar: ijtimoiy e'tiqodlar va amaliyotlar va zo'ravonlik munosabatlari bevosita inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, noto'g'ri bajarilgan erkak sunnat o'g'il bolalar va yigitlarning sog'lig'iga xavf tug'diradi. Boshqa misol, jinsga asoslangan zo'ravonlikdir. Erkaklar zo'rlangan bo'lsa-da (hozirda qonunimizda odobsiz tajovuz deb e'tirof etilgan, zo'rlash faqat roziliksiz vaginal jinsiy aloqa bilan cheklangan), zo'rlanganlarning aksariyati ayollardir. 2003/4 yillarda Janubiy Afrikada kamida 100 000 zo'rlash qayd etilgan. Zo'rlangan shaxs zudlik bilan jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, shu jumladan OIV, jismoniy va ruhiy jarohatlar uchun tekshiruv va davolanishga muhtoj. Xususan, ayollar uchun homiladorlikni to'xtatish bo'yicha xizmatlardan foydalanish ham talab qilinishi mumkin. Gender rollari erkaklar va ayollarning sog'lig'iga qanday ta'sir qilishiga statistik misollardan biri bu erkaklar va ayollarning o'lim tabiati va sabablari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Misol: O'lim sabablari 2000 yildayoq OIV/OITS erkaklar va ayollar o'rtasida erta o'limning asosiy sababi bo'lgan. Shunga qaramay, epidemiya ayollarga nomutanosib ta'sir ko'rsatdi va davom etmoqda: ayollar o'rtasidagi bevaqt o'limlarning 46 foizi OIV/OITS bilan bog'liq; Erkaklar o'rtasidagi bevaqt o'limlarning 32,9 foizi OIV/OITS bilan bog'liq. Qotillik yoki zo'ravonlik erkaklar o'limining ikkinchi eng ko'p sababi (barcha o'limlarning 11,6%), ayollar o'limining 2,7% dan farqli o'laroq (o'limning ettinchi sababi sifatida). 2006 yilda Janubiy Afrika Statistikasi tomonidan e'lon qilingan hisobot shuni ko'rsatdiki, 25-29 yoshdagi erkaklar o'limi 23 360 bo'lsa, 41 530 ayol o'lgan.

Gender tengligini ta'minlash Barqaror taraqqiyot 2030 dasturining 17 maqsadidan biridir. Belgilab olingan vazifalarni yechish uchun keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi "majmuaviy yondashuv"ni qo'llash talab qilinadi. Joriy yilda jahonimizning barcha yetakchilarini qashshoqlik va tengsizlik darajasini pasaytirish hamda ona-yerimizni himoyalashga qaratilgan aniq va izchil choralarni ko'rishga undash har birimizning burchimizdir. Ayollar huquqlari va gender tenglik

Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalaymaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidir. Bu esa o'z navbatida har bir mamlakatda siyosiy va iqtisodiy o'sishga erishishda katta yordam berishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tildi. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilayotgani borasida so'z bordi. Bugungi kunda OAV lari yordami bilan bu tushunchaning yetarli yoritib berilmasligi natijasida gender tenglik deganda, ko'pchilik ayollar bilan bog'liq munosabatlarni tushunmoqda. Lekin gender tenglik bu jamiyatda erkak va ayollarning tengligi hisoblanadi. Yana ayrimlarda gender tenglik deganda jamiyat va oilada ayollarning ustunroq huquqqa ega bo'lishi degan yo'nalishdagi fikrlar paydo bo'ldi. Ammo gender tenglikni ta'minlashdan asosiy maqsad jamiyatda ayollar rolini erkaklardek oshirish hisoblanadi. Shu bilan birga, oiladagi munosabatlar urf-odatlar, mentalitetga sodiq holda saqlanib qolinishi kerakligini tushuntirdi mas'ul ekspert. Erkaklar va ayollar huquqlarini teng ta'minlash uchun strategiya ishlab chiqilishi kerak bo'lgan. O'tkazilgan muhokama ham shunga bag'ishlangan yakuniy bosqichlardan biri bo'lgan. Loyiha mas'ullari strategiyani ishlab chiqishda bir qator muammolarga duch kelgan. Asosiy sabab sifatida "gender" atamasi jamiyat uchun hali yangiligi taxmin qilingan. Avvalambor, Konstitutsiyamizda ayollar va erkaklar teng huquqli ekani aniq ko'rsatib o'tilgan. Qolaversa, ayollar manfaatlarini himoya qilishga doir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Jamiyatda, jamoada ayollarga qator qulayliklar berilgan. Ayollar og'ir ishlarga jalb qilinmaydi, uch yoshgacha farzand tarbiyalayotgan, nogiron bolasi bor ayollarning ish vaqtlari qisqartirilgan. Jamoa shartnomalari orqali berilayotgan imtiyozlar ayollar manfaatdorligini yanada kengroq ta'minlamoqda. Qadriyatlarimiz, dinimizda ayolni ardoqlash shart qilib -qo'yilgan. Dunyodagi ayollar manfaatlarini ifodalovchi barcha hujjatlarni jamlaganda ham birgina «Jannat onalar oyog'i ostidadir» degan hadisning salmog'ini bosolmaydi. Oddiygina kundalik hayotimizdan misollar keltiraylik. Eshik qarshisiga erkag-u ayol teng kelsa, ayolga yo'l beriladi. Avtobusda erkak kishi, garchi o'zidan bir-ikki yosh kichik bo'lsa-da, ayolga o'rin bo'shatib beradi. Og'ir yuk ko'tarib ketayotgan ayolni ko'rgan yigit uni tanimasa-da qo'lidagi sumkasini oladi. Er ishdan kelganda birinchi bor ayolini yo'qlaydi. O'g'il-u qiz eshikdan birday «Ona» deb kirib keladi. Bu izzat-u ikromda ming yillar davomida shakllangan milliy an'ana va qadriyatlarimiz mujassam. Ana shunday iliq mulozamat ko'magida ayol bilimi, salohiyati, iqtidori nuqtai nazaridan erkaklardan qolishmaydigan darajaga erishdi. Shunga monand jamiyatdagi mavqeini yanada

mustahkamlashga harakat qilmoqda. Maqsad jamiyatga yanada ko'proq foyda keltirishdir. Ammo, ko'plab oilalarda qiz farzandga nisbatan jamiyat va oilaning to'laqonli a'zosi emas, kimningdir hasmi sifatida qarash hamon ustun. Bunday nazar ostida tarbiyalanayotgan qizlar o'z kelajagi to'g'risida o'y surganda jamiyat, faollik, maqsad, kasbhunar egallash kabi tushunchalarni bir chetga surib qo'yadi. Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, salomatligini mustahkamlash, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Bu esa dunyoni o'rgimchak to'ri kabi o'rab olgan bozor iqtisodiyotining beshafqat o'yinlari, talablariga mos hayot kechirishimizda juda muhim. Biz istaymizmi, yo'qmi, jahon hamjamiyati bilan teng odimlashga majburlamiz. Yo'qsa, xastahol inson jamiyatdan uzoqlashgani yanglig' dunyodan uzilamiz. Ko'pni ko'rgan insonlar duoga qo'l cho'zgan chog'ida, albatta, tilga olinadigan bir tilak bor: «Issiq o'rnimiz yo'qolmasin». Jamiyatda erkakning ham, ayolning ham o'z o'rne bor. Gender tenglik haqida mulohaza yuritganda, masalaning ushbu jihatini ham esdan chiqarmaslik kerak. Qolaversa, xotin-qizlarning huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy bilimlarini oshirish borasida qilinishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бим-Бад Б.М., Днепров Э.Д., Корнетов Г.Б. *Мудрост воспитания: Кн. для родителей.* - М.: Педагогика, 1987.
2. Винникотт Д.В. *Маленькие дети и их матери.* - М.: Класс, 1998.
3. Гальперин. П. Я, А.В. *Запорожец, А.Д. Кошелева. Психология.* - М., 1976.
4. Голубева Л.Г., Леценко М.В. *Развитие и воспитание детей раннего возраста.* - М., 2002.
5. Гордон Т.Р. *Повышение родительской эффективности.* - Екатеринбург, 1997.
6. Гребенников И.В. *Воспитательный климат семьи.* - М., 1975.
7. Дубровина И.В. *Психическое здоровье детей и подростков.* - М.: Академия, 2000.